

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMLI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI**

**INFORMATIKA KAFEDRASI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**G‘ULOMOV SHOXRUX**

**WEB SAHIFALAR YARATISHDA PHP  
DASTURLASH TILINING AHAMIYATI**

**5110700 – Informatika o‘qitish metodikasi ta‘lim yo‘nalishi  
bo‘yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ish rahbari:**

**katta o‘qituvchi M.Rahmonov**

**Andijon – 2015**

## **Мундарижа**

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I. BOB. ZAMONAVIY WEB SAYTLAR</b>	
<b>I. 1-§. Web saytlar yaratish jarayoning zamonaviy holati.....</b>	<b>6</b>
<b>I. 2-§. Web saytlar yaratish vositalari.....</b>	<b>8</b>
<b>II. BOB. WEB SAYTLAR UCHUN PHP VOSITASI</b>	
<b>II. 1-§. Macromedia Dreamweaverda yangi sayt ochish .....</b>	<b>11</b>
<b>II. 2-§. PHP da funksiyalar, jadvallar.....</b>	<b>19</b>
<b>II. 3-§. Fayl o'zgaruvchilar bilan ishlash.....</b>	<b>37</b>
<b>III. BOB. PHP DA MYSQL SERVER BILAN ISHLASH</b>	
<b>III. 1-§. Global massivlar.....</b>	<b>42</b>
<b>III. 2-§. PHP da ma'lumotlar bazasi.....</b>	<b>47</b>
<b>III. 3-§. Formalar bilan ishlash.....</b>	<b>62</b>
<b>Xulosa.....</b>	<b>66</b>
<b>Adabiyotlar.....</b>	<b>67</b>

«Jahon sivilizatsiyasiga daxldor boʻlgan eng zamonaviy ilmlarni egallamay turib, mamlakat taraqqiyotini taʼminlash qiyin».

## **ISLOM KARIMOV**

### **Kirish**

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun keng yoʻllar ochildi. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, zamonaviy axborot texnologiyalarini hayotga tadbiiq etish hamda butun dunyo iqtisodiy aloqalari sistemasiga kirishning optimal yoʻllari qidirildi va unga bogʻliq muammolar oʻz yechimini topa boshladi.

Oliy majlis tomonidan “Axborotlash haqida” gi, “EHM uchun dastur va maʼlumotlar bazasining huquqiy himoyasi”, “Internet Web saytlaridagi axborotlarning haqoniyliigi hamda muallif huquqlari haqida” gi qonunlar qabul qilindi. Oʻzbekiston Respublikasini 2010 yilgacha mahalliy boshqaruv organlari va davlat tashkilotlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan taʼminlash hamda kompyuterlashtirishning milliy dasturi va telekommunikatsion tarmoqlarni rivojlantirishning normativ huquqiy asoslari yaratildi. Axborot resuslari revojanishi uchun iqtisodiy, tashkiliy shart-sharoit va kafilliklar taʼminlandi. (Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 06.06.2002 yildagi № 200 sonli qororidan).

Hozirda Respublikamizning deyarli barcha korxonalar, tashkilot va oʻquv muassasalarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan taʼminlanishi hamda internetda oʻz Web saytlari boʻlishiga katta ahamiyat berilyapti[5].

Bugungi kunda Interneting ommaviyliigi haqida gapirish oʻrinsiz. Internet hayotimizning bir boʻlagiga aylandi, biz uning xizmatlaridan har kuni foydalanishga odatlandik. Hozirda ixtiyoriy inson web-texnologiyalarning inson

hayotining ta'lim, kommersiya, siyosat, ko'ngil ochar , ... bo'laklariga kirib borganligini tasavvur eta oladi va uning guvohi va foydalanuvchisiga aylanmoqda[8].

Internet turli xil insonlarni yagona maqsad bilan birlashishiga sabab bo'lmoqda. Hamma Internet tarmag'idan biror turdagi informatsiya olishga harakat qiladi. SHunday vaqtlar keladiki, hujjatni Internetda chop etish malakasi yozuv mashinkasidan foydalanish kabi har bir hatto o'rta ma'lumotga ega bo'lgan insonning qo'lidan keladi.

Web sahifa Internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to'plami bo'lib, ularni soni soat sayin ko'payib bormoqda. Bu fayllarda ma'lumotlarni turli xillarini: matn, grafik, tasvir, video, audio ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bugungi kunda Web Internet resurslari ichida eng ommaviysi hisoblanadi. CHunki, avvaldan tayyorlangan Web sahifa orqali tegishli ma'lumotlarni to'ldirish foydalanuvchining qanchadan-qancha vaqtini tejash imkonini beradi. SHu bois matematika va informatika yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga Web texnologiyalarni alohida kurs sifatida o'qitila boshlandi.

### **Mavzuning dolzarbligi:**

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning 2012 yil 21 mart PQ-1730-sonli "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida ham shunga alohida e'tibor berib ketilgan.

Ma'lumki, hozirgi kunda internet texnologiyalari jadal sar'atlar bilan rivojlanib bormoqda, bu esa talabalarni internetda ishlash bilan birga ularga mos ravishda turli xil sahifalarni yaratish texnologiyasini bilishlari talab qilinadi[3].

Web saytlar yaratishda PHP tili muxim vositalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu bitiruv malaka ishida bu tilning imkoniyatlari, sayt saxifalarini qo'llash usullari batafsil yoritib berish asosiy maqsad sifatida qaralgan.

Bitiruv malakaviy ishida keltirib o'tilgan mavzu bo'yicha hozirgi kunda yetarlicha adabiyotlar mavjud emasligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu o'quvchilar uchun biroz qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Web saytlarni

yaratishda PHP tili tadbiqlari, o'rtadagi mana shu kamchiliklarga biroz bo'lsada barham berish va o'rganuvchilarni mustaqil ta'lim olishlari uchun imkon yaratib berishdan iborat[11].

Bu fikrlardan ko'rinadiki, tanlangan mavzuni dolzarbligini belgilab beradi.

**Bitiruv-malakaviy ishning maqsadi:**

Internet Web saytlarini yaratish jarayonini tadqiq etish, PHP tili imkoniyatlarini ochib berish va mavjud usullarni rivojlantirish.

**Tadqiqot vazifalari:**

- Bugungi kundagi Web saytlar yaratish jarayoni mohiyatini ochib berish;
- Internet sahifalarida PHP tilini mohiyati va ahamiyati;
- PHP tilidagi asosiy buyruqlarni sayt sahifalarida qo'llanishini amaliy ishlab chiqish;
- HTML, PHP, MYSQL, Denwer, Macromedia Dreamweaver vositalarida sodda sayt yaratish texnologiyasini ishlab chiqish.

**Tadqiqot obekti:** PHP va MYSQL vositalarini web saytlar yaratish jarayonida joriy etish.

**Tadqiqot predmeti:** Internet saytlarini yaratishda amaliy dasturiy vositalarini tadqiq etish.

**Tadqiqot metodlari:** analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, amaliy tajribalar o'tkazish va mavzuga doir mavjud adabiyotlar tahlil qilish.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "DS va o'quv dasturi", "Davlat dasturi", hukumat qarorlari, Prezidentimizning asarlari hamda ta'lim tarbiyaga oid fikrlari, mavzuga doir ilmiy-metodik adabiyotlar.

## **I. БОБ. ZAMONAVIY WEB SAYTLAR**

### **I. 1-§. Web saytlar yaratish jarayoning zamonaviy holati**

O‘zbekiston Respublikasida butun dunyoda amalga oshirilayotgani kabi zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalanish va xalq hayotiga singdirishga katta e’tibor berilmokda. Vazirlar Maxkamasining 1999 yil fevral oyidagi «Milliy tarmog‘ni yaratish, dunyo axborot tarmog‘laridan foydalanishni tartibga solish, hamda mahalliy boshqaruv organlarini, o‘quv muassasalari va O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan chet el shuba korxonalarining internet Web saytlaridagi reklamni bannerlarini kuchaytirish to‘g‘risida» gi, keyinroq «O‘zbekiston Respublikasida 2001-2006 yillar ichida ma’lumotlarni uzatish milliy tarmog‘ini rivojlantirish va takomillashtirish dasturi», 2008 yil iyun oyida qabul qilingan «Komp’yuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari majmuasi, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Axborotlash haqida» gi, «EHM uchun dastur va ma’lumotlar bazasining xuquqiy himoyasi», «Aloqalar haqidagi» qonunlarning qabul qilinishi shu borada olib borilayotgan ishlar uchun xuquqiy me’yor yaratib berdi[6].

Web saytlarni boshqarish tizimlari nazariyasini rivojlantirish va takomillashtirish, shuningdek, internet tarmag‘larini rivojlantirish masalalari bo‘yicha quyidagi olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan: Kondukova YE., Rybakov YE., Dabin G., Amirova A., Smirnovoy N., YE.Popov., Pershokova N., Tverskix N. va boshqalarni ta’kidlash mumkin. SHu jumladan, respublikamizdagi bir qator tashkilotlarda (O‘zbekiston Aloqa va Axborot agnetligi, TATU, Toshkent Diplomatika Universiteti, Moskva Davlat Universiteti filiali vahokazolar) bu soha bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarini aytib o‘tish mumkin [ <http://infocom.uz>].

Telekommunikatsiya kompyuter tarmoqlari va zamonaviy texnik aloqa vositalari negizida ma’lumotlarni masofadan uzatish yotadi. Axborot jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi. Bu tizimlar hozirgi internet tez rivojlanayotgan davrda unga

kiruvchilar sonini ko'payishiga tarmoqdagi saytlar miqdorining ortishi undagi dolzarb axborotlarning miqdori va sifatini oshishi kabi omillar bilan bog'liqdir.

Yaratilgan Web sayt qanchalik chiroyli bo'lmasin, baribir unga kiruvchilar avvalo unda yangi axborotlarni qidiradi. Ayniqsa Web saytni yaratishdan maqsad saytga kiruvchi mijozlarni jalb qilishdan iborat bo'lsa, axborotlarni yangi bo'lishi yanada muhim ahamiyat kasb etadi[9].

Web sayt kontentlarini boshqarishning ikkita asosiy turi mavjud bo'lib, ular statik va dinamik Web saytlardan iboratdir. Ko'pincha Web saytlar yaratilayotganda yuqoridagi ikkita turdagi saytlarning bo'limlaridan foydalaniladi. Bu saytlarning bir-biridan asosiy farqlari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Statik Web sayt standart html texnologiyalar yordamida yaratiladi va sahifalanadi. Saytning sahifalari serverning fayllar sistemasida html-kod ko'rinishida saqlanadi. Tabiiyki, bunday saytda flyesh zastavkalar, roliklar, animatsiyalar va boshqalar qatnashishi mumkin. Ammo bunday saytlarni yangilash va taxrirlash uchun mashaqqatli mehnat talab qilinadi hamda yuqori malakali web-dzaynerlarni va internet texnologiyalar sohasidagi boshqa mutaxassislarni doimo jalb qilish zarur bo'ladi.

## I. 2-§. Web saytlar yaratish vositalari

Bulardan tashqari zamonaviy saytlar yaratishda optimal foydalanilayotgan PHP va MySQL ma'lumotlar bazasini alohida takidlab o'tish mumkin.

PHP –o'z nomini yetarlicha tanitib ulgurgan, dasturlash tili hisoblanadi. Gap shundaki, boshlanishda bu uncha qiyin bo'lmagan shaxsiy Web –saxifalarini yaratish uchun mo'ljallangan oddiy makroslar to'plamidan iborat bo'lgan bo'lib, PHP-personal home page (shaxsiy uy saxifasi) so'zlarining qisqartmasidan iboratdir[21].

Vaqt o'tishi bilan makroslar to'plami mukammal dasturlash tiliga aylanib zamonaviy ma'lumotlar bazasi bilan ma'lumot almashish imkoniyatiga ega bo'lgan Web tarmoq sahifalarini va dinamik saytlarni yaratuvchi tilga aylandi. Tilning imkoniyatlari kengaygani sari uning ommaviyligi ham o'sib bormoqda. Netcraft (<http://www.netcraft.com>) kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra 1999 yil noyabr oyida RNR texnologiyasi Web tarmoqlarining bir milliondan ortig'idan foydalanilgan 2000 yilga kelib bu ko'rsatgich 1400000 taga yetgan.

RNR ning 1-versiyasi Rasmus Lerdorf (Rasmus Lerdorf) ismli programmist tomonidan yaratilgan bo'lib, internet saytlarini yaratishni yengillashtirish uchun makroslar to'plamidan iborat bo'lgan.

Tez orada u foydalanuvchilar nazariga tusha boshladi hamda tezlik bilan takomillashib, ommalashib bordi. 1997 yildan tilni rivojlantirish maqsadida bir gurux programistlar ish olib borishdi. Mexnatlarning samarasida esa PHP3 keyingi versiya yaratildi. Bu PHP ning takomillashgan va zamonaviy versiyasi bo'lib, unda matnlarining qayta ishlashning yangi usullari yaratildi va bu usullar Zib Zuraski va Endi Gutians (Zeev, Surasky, Andi Ceutmans) ismli dasturchilar tomonidan yaratildi. SHuningdek tilning sintaksisida biroz o'zgarishlar kiritilib, yangi funksiyalar qo'shildi. YAngi avlod oz fursat ichida millionlab saytlar yaratishga ulgurdi va ularni boshqarish uchun dasturlash tillarining eng optimali bo'lib, juda ham tez ommalashib ketdi[14].

MySQL ma'lumotlar bazasi va Apeche serveri bilan ishlash uchun PHP ning imkoniyatlari yanada kengayib bordi. Apeche serveri hozirgi kunda dunyodagi eng

keng tarqalgan Web-server hisoblanadi va PHP tili Apache serveri uchun modul ko‘rinishida qo‘llanilishi mumkin. MySQL – bu zamonaviy ma’lumotlar bazasi bo‘lib bepul tarqatiladi, shuning uchun ham PHP ning barcha funksiyalari shu bazaga bog‘langan. Tan olish lozimki Apache, MySQL va PHP larning o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq ravishda ishlashi o‘rtadagi raqobatga barham beradi.

Internet saytlari va tarmoqlarni yaratish yo‘llari o‘zgarishi bilan PHP ham takomillashib bordi. 2000-yil o‘rtalariga kelib katta tarmoqlarda ham HTML da yozilgan yuzlab statik sahifalar ishlatilar edi. Hozir esa jarayon o‘zgarib bormoqda. Dinamik saytlarni boshqaruvchilar ma’lumotlar bazasi bilan ishlovchi saytlarni yaratish imkoniga ega bo‘lib, bu yaratilgan saytlarni Web portallari orqali boshqarishga ega bo‘lishmoqda.

PHP turli xil sistemalarda ishlay oladi. Bu sistemalar Windows, Unix ning ko‘plab versiyalari, shuningdek Linux va xatto Macintosh bo‘lishi mumkin. PHP ko‘plab tarmoq serverlarida, xususan Apache, Microsoft Internet Information Server, Web Site Pro, Iplanet Web Server va Microsoft Personal Web Server – larda ishlashi mumkin. Agar o‘zimiz tuzgan dasturlarimizni Windows tizimida tekshirishni xoxlasak oxirgi sanab o‘tilgan serverdan foydalanishimiz mumkin, xatto Apache serveri Windows sistemasi boshqaruvida ishlashi ham mumkin.

PHP interpretatori yordamida dasturni alohida mustaqil ko‘rinishda kompilyasiya qilish mumkin. U holda dasturni mustaqil ishga tushirish mumkin. PHP tilini yaratishda ma’lumotlar bazasi bilan bog‘lanish talablarini alohida e’tiborga olingan. Ko‘plab ma’lumotlar bazalarini PHP orqali boshqarish mumkin. Masalan bularga Adabas D, InternetBase, Golid, dBase, MSQL, Sybase, Empress, MySQL, Velosic, FilePro, Oracle, Unixdbm, Informix va hokazolarni keltirishimiz mumkin. SHuningdek, PHP ODBC standartini ham o‘qiy oladi.[11]

Web caytlardagi ma’lumotlarni saqlash, taxrirlash va ma’lumotlarga murojat qilish uchun ma’lumotlar bazasidan foydalanish hamda ularni boshqarish hozirgi kunda juda ham dolzarb va murakkab masallardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu fikrlar asosida aytish mumkinki, kelgusida PHP tili yanada takomillashib o'zining o'ta yuqori darajadagi web saytlar yaratish uchun mo'ljallangan dasturlash tili ekanligini namoyon qiladi va foydalanuvchilar orasida ommalashadi.


## II. BOB. WEB SAYTLAR UCHUN PHP VOSITASI

### II. 1-§. Macromedia Dreamweaverda yangi sayt ochish

Buning uchun **Start Denwer** dasturini ishga yuklaymiz.


So'ngra mantiqiy diskka kirib **D:\WebServers\home\localhost\www** papkasida sayt uchun yangi papka yaratamiz. Masalan, **php** nomli.

**Restart Denwer** nishon bilan serverni qayta ishga tushiramiz.




Rasm 1. Denwer serveri yuklanishi

Endi Macromedia Dreamweaver 8 dasturini yuklaymiz.




Oyna o'ng tomonida joylashgan **Manage Sites...** buyrug'ini bajaramiz. Bu oynadan **New...** buyrug'ini bajaramiz.



Rasm 2. Yangi saytni sozlash.


Sayt uchun nom kiritamiz. Bizda “php nazariyasi” deb nomladik.




Rasm 3. Yangi sayt papkasini ko'rsatish.

Local root folder: maydoniga o'tib web saxifaning papkasini ko'rsating.

**Soxranit** knopkasini bosing. So'ngra **Done** knopkasini bosing. Natijada dastur oynasining o'ng tomon maydonida yangi sayt nomi paydo bo'ladi[18].




Bu papkada hech qanday fayl mavjud emas. Endi yangi fayl yaratishga o'tamiz. Buning uchun **File-New...** buyrug'ini amalga oshiramiz.



Rasm 4. php yangi tipidagi xujjat yaratish.


Paydo bo‘lgan dialog oynadan **Dynamic page** bo‘limiga o‘tib undan **PHP** ni tanlaymiz. So‘ngra **Create** knopkasini bosamiz.



Rasm 5. Yangi xujjat kodlari

Etibor berilsa yangi saxifaning kodlari barchasi tanish chunki, HTML kodlarining aynan o‘zidir. HTML kodlari PHP kodlarining bir qismi sifatida ham tushunish mumkin[18].

Saxifani xotiraga olish uchun File-Save As... buyrug‘ini bajaramiz va yangi saxifaga nom qo‘yyamiz, ya’ni Index sifatida nomlaymiz. Natijada oyna o‘ng tomonida yangi fayl namoyish etiladi.



Endi saxifa tituli uchun nom kiritish mumkin. Bizda “Birinci php sahifa” titulini kiritdik.



Birinci navbatda php bloki qayday ochilishini o‘rganish zarur.

Odatda bu blok

<?

Buyruq

Buyruk

Buyruk

?>

Tartibida beriladi.

php dasturida o'zgaruvchilar \$ belgisi bilan boshlanadi va o'zgaruvchining nomi kiritiladi. O'zgaruvchining nomi albatta lotin xarflari bilan boshlanishi shart [27]. Masalan, \$name. Nomdan so'ng **o'zlashtirish** komandasi kiritiladi, ya'ni = belgisi. Tekstli qiymatni o'zlashtirish uchun uni " " ichida yoziladi. Satr so'ngida ; belgi kiritiladi.

```
$name="Abdulla";
```

Natijada name o'zgaruvchiga Abdulla so'zi o'zlashtiriladi.

O'zgaruvchining qiymati sondan iborat bo'lsa " " qo'shtirnoq ichiga olinmaydi.

Masalan,

```
$age=25;
```

O'zgaruvchi konteynar bo'lib u xox son bo'lsin, xox bir nechta matn bo'lsin barchasini saqlaydi. Quyidagicha tushunamiz.

#### O'zgaruvchi

\$a=	7
------	---

\$b=	Bu masala bo'yicha kafedra katta o'qituvchisi M.Medatov so'zga chiqib, G.G.Temirovaning nomzodini tasdiqlash zarurligini asosladi. G.G.Temirovaning ilmiy hamda pedagogik tajribalarini hisobga olgan holda uning nomzodi kafedrada bo'shagan katta o'qituvchi lavozimiga ma'qul deb qo'llab quvvatlandi.
------	---

<body>

<?

```
$name="Abdulla";
```

```
$age=25;
```

?>

```
</body>
```

Saxifani xotiraga olamiz va brauzer oynasida ishga tushiramiz. Brauzer oynasida xech narsa na Abdulla na 25 soni aks etadi.

Buning uchun php dasturida o'zgaruvchini ekranga uzatuvchi maxsus buyruq mavjud. **echo** va **print**. Bularning har ikkalasi ham bir xil vazifani, ya'ni chiqarish buyrug'ini bajaradi.

```
<body>
```

```
<?
```

```
$name="Abdulla";
```


```
$age=25;
```

```
echo "$name";
```

```
?>
```

```
</body>
```

Natijada brauzer oynasida Abdulla so'zi paydo bo'ladi.



php dasturi serverda turgan o'zgaruvchini qayta ishlaydi. O'zgaruvchini qiymati o'zlashtiradi va berilgan buyruqqa asosan ekranga chiqaradi. echo buyrug'i yordamida o'zgaruvchining qiymatigina emas balki tekstni o'zini ham ekranga chiqarish mumkin. Masalan,


```
echo "Avtomobil";
```

Yangi satrda aks ettirish uchun yangi satrga o'tish tegidan foydalanamiz.

```
echo "<br>Avtomobil";
```

```
echo "<br> Mening do'stim ismi- $name uning yoshi $age";
```

Satri brauzer oynasida quyidagicha ko‘rinadi.




Rasm 6. Natijalarni brauzer oynasida ko‘rish

```
$n=10;
```

```
$c=$age+$n;
```

```
echo "<br> Abdullaning yoshi 10 yildan so'ng $c yoshda bo'ladi";
```

Arifmetik amal bajarib ekranga chiqaramiz. Natija quyidagicha



Rasm 7. Natijalarni brauzer oynasida ko‘rish

O‘zgaruvchilarning nomlari qanday berilgan bo‘lsa ularni qo‘llash ham shu tarzda bo‘lishi kerak[14]. Masalan \$n bo‘lsa uni barcha joyda \$n tarzda ishlatish kerak, agar \$N ishlatsak u aynan o‘sha o‘zgaruvchi emasdir.

Agar brauzer oynasidagi ma‘lumotda qo‘shirnoq aks etishi zarur bulsa nima bilish zarur. Oddiy tarzda yozib ko‘ramiz.

```
$name="Abdulla "DEWOO AUTO" firmasida ishlaydi";
```

Brauzer oynasida quyidagi xabar paydo bo‘ladi.

**Parse error: syntax error, unexpected T\_STRING in V:\home\localhost\www\php\Index.php on line 11**

Demak maxsus belgilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatish mumkin emas ekan.  
Bunga barxam berish uchun qo‘shirnoqdan oldin \ belgisi kiritiladi.

```
$name="Abdulla \"DEWOO AUTO\" firmasida ishlaydi";
```

HTML kodlarida xam qo‘shirnoq ko‘p ishlaydi bu jarayonda esa uning o‘rniga ' belgisini ishlatish mumkin. Masalan,

```
echo "<p align='center'> Avtomobil</p>";
```

Arifmetik amallarni bajarish to‘g‘ridan to‘g‘ri bajariladi [27].

```
$n = 10;
```

```
$c = $age + $n;
```

```
$e = $age - $n;
```

```
$f = $age * $n;
```

```
$g = $age / $n;
```

```
echo "<br>$e";
```

```
echo "<br>$f";
```

```
echo "<br>$g";
```

15
250
2.5

O‘zgaruvchining qiymatini ketma-ket qo‘yish uchun quyidagi amalni bajaramiz

```
$h = $age . $n;
```

2510
------

```
echo "<br>$h";
```

## II. 2-§. PHP da funksiyalar, jadvallar

### *if else konstruktsiyasi*

if ....else (agar...bo'lsa) konstruktsiyani ko'rib chiqamiz.

```
<?php
```

```
if (shart) agar shart-rost bo'lsa, u xolda
```

```
{
```

```
buyruqlar
```

```
}
```

```
else agar shart-yolg'on bo'lsa, u xolda
```

```
{
```


```
buyruqlar
```

```
}
```

```
?>
```

Bu konstruktsiya o'zgaruvchiga shart qo'yiladi va shu shart natijasiga ko'ra rost bo'lsa buyruqlar, yolg'on bo'lsa boshqa buyruqlar bajariladi.

Biz oson o'zlashtirimiz uchun yangi php fayl yaratib olamiz. Va uni shunchaki if nom bilan xotiraga olamiz.



Rasm 8. Natijalarni brauzer oynasida ko'rish

```
<?php
```

```
$a = 1;
```

```
$b = 2;
```

```
if ($a==$b)
```

```
{
```

```
echo "Uzgaruvchilar uzaro teng";
```

```

}
else
{
echo "Uzgaruvchilar uzaro teng emas";
}
?>

```

Izox: teng emas belgisi kuyidagicha yoziladi != matematika tilida ≠

*While konstruksiyasi (SHart rost bo'lsa bajar)*

```

<?php
While (shart)-shart natijasi rost bo'lsa, u xolda
{
buyruklar
}
?>

```


Bu sikl operatori bo'lib shartda ko'rsatilgan ifodaning qiymati yolg'on bo'lgunga qadar { } orasidagi buyruqlarni qayta-qayta bajaradi.

Misol.

```

<?php
$a = 0;
while ($a<10)
{
echo " $a";
$a = $a+1;
}
?>

```



Dastur natijasi 0 dan boshlab 9 gacha bo'lgan sonlarni ekranga chiqaradi.

Misol

```

$sum=0;
$i=1;
while($sum<100)

```

```

{
$sum=$sum+$i;
echo $sum;
}

```

Dastur natijasi 1 dan boshlab 100 gacha bo‘lgan sonlarni ekranga chiqaradi.

Misol

```

$sum=0;
$i=1;
while($i<=100)
{
$sum=$sum+$i;
$i++;
}


```

echo "<br>Barcha sonlar yigindisi \$sum ga teng"

Dastur natijasi 1 dan 100 gacha

bo‘lgan sonlar yig‘indisini xisoblaydi va ekranga chiqaradi.

Izox: ++ buyrug‘i o‘zgaruvchini qiymatini 1 ga oshiradi.



*for universal sikl*

<?php

**For (initsilizatsiya; shart; sikldan so‘ng bajar;)**


```

{
buyruklar
}
?>

```

Misol

for (\$i=0, \$sum=0; \$i<=1000; \$i++; )



```
{  
$sum=$sum + $i;  
}
```

Misol natijasi 1dan 1000 gacha sonlar yigindisidan iborat bo'ladi.

Dastur \$i=0, \$sum=0 initsilizatsiya qismini bir marta bajaradi. So'ngra shartni tekshiradi va { } ichidagi buyruqlarni bajaradi. Keyin esa **sikldan so'ng bajar** qismiga o'tadi. Rasmda qizil strelkalar bilan sil ishlash tartibi ko'rsatilgan.

*Katta xajmdagi matnlarni bilan ishlash.*

**echo <<<HERE**

**katta ko'lamdagi matn joyi.**

**HERE;**

Izox: HERE o'rniga TEXT so'zidan xam foydalanish mumkin.

*Switch-case konstruktori. (Tanlash operatori)*

Switch [ifoda] {

case qiymat1:

buyruklar

break;

case qiymat2:

buyruklar

break;

----- (va xokazo)

case qiymat N:

buyruqlar


break;

default:

agar biror harakat bajarilmay qolsa

break;

}




```
for ($i=0, $sum=0; $i <= 1000; $i++)  
{  
$sum = $sum + $i;  
}
```

The image shows a code snippet with red arrows indicating the execution flow. The first arrow points to the initialization part of the for loop (\$i=0, \$sum=0). The second arrow points to the condition (\$i <= 1000). The third arrow points to the increment part (\$i++). The fourth arrow points to the body of the loop (\$sum = \$sum + \$i;). The fifth arrow points to the closing brace of the loop.

Bir nechta qiymatlardan birini tez suratdan tanlash imkonini beradi. SHunday xolat bo‘ladiki, o‘zgaruvchining qiymatiga qarab natijani chiqarish kerak bo‘ladi. Misol uchun bizda mahsulot uchun tolovning 10 xil usuli bor. Pul o‘tkazmalari, internet orqali, kredit kartasida, mobil telefon orqali... Mijoz o‘ziga ma’qul bo‘lgan to‘lov turini tanlaydi. Bu vaziyatda kompyuter, to‘lov turiga mos xabar ekranga uzatilishi kerak [28]. Bunday xolatlarda if buyrug‘idan foydalansak, 10 marta bu buyruqni ishlatishga to‘g‘ri keladi.

```
$sposob="Bank";  
switch ($sposob)  
{  
case "Bank":  
echo "<p> Bank orkali tulash uchun...";  
break;  
  
case "Pochta":  
echo "<p> Pochta orkali tulash uchun...";  
break;  
  
case "Western Union":  
echo "<p> Western Union orkali tulash uchun...";  
break;  
  
default:  
echo "<p> Siz biror tulov turini tanlamadingiz";  
break;  
}
```

Dastur natijasi “Bank orqali tulash uchun...” xabaridan iborat jumladan iborat.




### Jadvallar

|                | 0   | 1     | 2     | 3    | 4      |
|----------------|---|-------|-------|------|--------|
| <b>\$name=</b> | Sasha   | Masha | Vanya | Anya | Kostya |
| <b>\$b=</b>    | Siz o'z ishlaringizni amalga oshirish uchun ishlarni to'g'ri rejalashtiring |       |       |      |        |

Oldingi darslardan ma'lumki o'zgaruvchi bu o'zida biror qiymatni (son, so'z...)saqlovchi konteyner. Massiv esa indeksli o'zgaruvchi deb tushunish mumkin. YA'ni har o'zgaruvchining nomi va indeks tartib raqami bo'ladi.

Misol.

```
$name[0]="Sasha";  
$name[1]="Masha";  
$name[2]="Vanya";  
$name[3]="Anya";  
$name[4]="Kostya";  
echo $name[2];
```



Dastur natijasi Vanya so'zidan iborat.

Undan tashqari massiv

elementlarini quyidagi usul bilan xam kiritish mumkin [23].

```
$name = array(0=>"Sasha",1=>"Masha",2=>"Vanya",3=>"Anya",4=>"Kostya");
```

Agar massiv indeksi 0 dan boshlansa, quyidachi xam o'zlashtirish mumkin.

```
$name[0]="Sasha";  
$name[1]="Masha";  
$name[2]="Vanya";  
$name[3]="Anya";  
$name[4]="Kostya";
```

php dasturi qavs ichidagi indeksni o'zi avtomatik tarzda qo'yib chiqadi.

```
$name = array("Sasha", "Masha", "Vanya", "Anya", "Kostya");
```

Bu xolatda ham avtomatik nomerlaydi.

Php dasturida izox (komentariya) berish uchun quyidagi shablon ishlatiladi

```
\*komentariya *\
```

*Assotsiativ massivlar.*

|                   | 0             | 1                 | 2             | 3                 | 4             |
|-------------------|---------------|-------------------|---------------|-------------------|---------------|
| <b>\$name=</b>    | <b>Sasha</b>  | <b>Masha</b>      | <b>Vanya</b>  | <b>Anya</b>       | <b>Kostya</b> |
|                   | <b>Russia</b> | <b>USA</b>        | <b>France</b> | <b>Uzbekistan</b> | <b>Italy</b>  |
| <b>\$capital=</b> | <b>Moskva</b> | <b>Vashington</b> | <b>Parij</b>  | <b>Toshkent</b>   | <b>Rim</b>    |

Assotsiativ massivlar oddiy massivlardan farqli ravishda ularning indeks ko'rsatkichlari raqamlar emas balki so'zlardan iborat.

```
$naselenie=array("Russia"=>"150", "USA"=>"250", "France"=>"40",  
"Uzbekistan"=>"30", "Italy"=>"35");  
echo "<br>";  
echo $naselenie["Italy"];
```

Assotsiativ massivga qiymatlar o'zlashtiriladi va bo'sh satr tashlanadi, Italy indeksning qiymati ekranga chiqariladi.

echo "Rossiyaning poytaxti-"\$capital["Russia"]." Rossiya axolisi esa-  
"\$naselenie["Russia"]." kishidan iborat";

Dastur natijasi quyidagi oynada aks etgan.

Россиянинг пойтахти-Москва Россия аҳолиси эса-150 кишидан иборат

Yoki boshqa usulda yozish mumkin. Bu xolda ortiqcha qo'shtirnoqlar olib tashlanadi.

echo "Rossiyaning poytaxti - \$capital[Russia]. Rossiya axolisi esa -  
\$naselenie[Russia] mln. kishidan iborat";

*Ko'pvaznli massivlar.*

|                    | <b>bmw</b>  | <b>audi</b>             | <b>nissan</b>          | <b>toyota</b>          | <b>ferrari</b>      |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
|--------------------|---|-------------------------|------------------------|------------------------|---------------------|------|------|---|-------|------|----|-------|------|------|--|-------|------|----|--------|------|------|---|-------|------|----|-------|------|------|---|-------|------|----|-------|------|------|
| <b>\$auto =</b>    | <table border="1"> <thead> <tr> <th>color</th> <th>year</th> <th>pr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>Белый</td> <td>2005</td> <td>2000</td> </tr> </tbody> </table> | color                   | year                   | pr                     | Белый               | 2005 | 2000 | <table border="1"> <thead> <tr> <th>color</th> <th>year</th> <th>pr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>Синий</td> <td>2003</td> <td>2200</td> </tr> </tbody> </table> | color | year | pr | Синий | 2003 | 2200 | <table border="1"> <thead> <tr> <th>color</th> <th>year</th> <th>pr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>Черный</td> <td>2007</td> <td>1000</td> </tr> </tbody> </table> | color | year | pr | Черный | 2007 | 1000 | <table border="1"> <thead> <tr> <th>color</th> <th>year</th> <th>pr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>Белый</td> <td>2005</td> <td>7000</td> </tr> </tbody> </table> | color | year | pr | Белый | 2005 | 7000 | <table border="1"> <thead> <tr> <th>color</th> <th>year</th> <th>pr</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>Белый</td> <td>2001</td> <td>9000</td> </tr> </tbody> </table> | color | year | pr | Белый | 2001 | 9000 |
| color              | year  | pr                      |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| Белый              | 2005  | 2000                    |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| color              | year  | pr                      |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| Синий              | 2003  | 2200                    |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| color              | year  | pr                      |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| Черный             | 2007  | 1000                    |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| color              | year  | pr                      |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| Белый              | 2005  | 7000                    |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| color              | year  | pr                      |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| Белый              | 2001  | 9000                    |                        |                        |                     |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |
| <b>\$capital =</b> | <b>Russia</b><br>Москва   | <b>USA</b><br>Вашингтон | <b>France</b><br>Париж | <b>Ukraine</b><br>Киев | <b>Italy</b><br>Рим |      |      |   |       |      |    |       |      |      |  |       |      |    |        |      |      |   |       |      |    |       |      |      |   |       |      |    |       |      |      |

Ko'pvaznli massivni massiv ichidagi massiv sifatida tushunish mumkin. Bunday massivlarda bir yacheykada yana bir donadan massiv mavjud. YUqoridagi rasmda \$auto massivi bmw yacheykasida yana bir massiv joylashganligini ko'rish mumkin.

\$auto["bmw"] = array ("color" => "Beliy", "yaer" => "2005", "pr" => "2000");

\$auto["audi"] = array ("color" => "Siniy", "yaer" => "2003", "pr" => "2200");

\$auto["nissan"] = array ("color" => "Cherniy", "yaer" => "2007", "pr" => "1000");

```
$auto["toyota"] = array ("color" => "Beliy", "yaer" => "2005", "pr" => "7000");
```

```
$auto["ferrari"] = array ("color" => "Beliy", "yaer" => "2001", "pr" => "9000");
```

```
echo "<br>AUDI mashinasi yili-" . $auto["audi"] ["yaer"];
```

Dastur natijasi quyidagi bir satrli xabardan iborat.

AUDI mashinasi yili-2003

*Parametrli funksiyalar*


|   |   |
|---|---|
| <pre>&lt;?php funksiya(parametrlar) {  <b>FUNKSIYA TANASI</b>  } ..... Saxifaning qandaydir kodlari .....  <b>funksiya();</b> ?&gt;</pre> | <pre>&lt;?php function square(\$a) {  <b>\$result=\$a*\$a;</b> <b>Echo \$result;</b>  } ..... Saxifaning qandaydir kodlari ..... <b>square(5);</b> (Bizga 25 natijani beradi) ?&gt;</pre> |
|---|---|

Funksiya aniqlangandan so'ng saxifaning ixtiyoriy joyida qo'llash mumkin. Bizning misolimizda funksiya nomi square va o'zgaruvchi \$a dan iborat bo'lib o'zgaruvchining kvadratini xisoblab beradi. Yangi php fayl yaratamiz. Uni function nomi bilan saqlaymiz.

Misol №1


```
function square($a)
{
$result = $a*$a;
```

```
echo $result;
}
echo "7 sonining kvadrati - ";
square(7);
Dastur natijasi.
```



Misol №2

```
function square($a)
{
$result = $a*$a;
echo $result;
}
$new = 80;
echo "$new sonining kvadrati - ";
square($new);
Dastur natijasi.
```



Izox: funksiya e'lon qilingan satrdan oldingi satrlarda ham qo'llash mumkin. Albatta e'lon qilingandan keyingi satrlarda funktsiyani ishlatish shart emas. Gipermurojatli funksiya xosil qilamiz.

```

function link ()
{
echo "<a href='http://www.ziyonet.uz'> O'zbekiston ta'lim portali </a>";
}
echo "<br>";
link();
return buyrug'i

```

Funksiyaning natijasini ekranga chiqarmasdan funksiyaning o'zida saqlab qolish uchun **return** buyrug'idan foydalanamiz [22].


Misol.

```

function square($a)
{
$result = $a*$a;
return $result;
}

```

Dastur natijasi.



Rasmdan ko'rinib turibdiki, funksiya ishlamoqda lekin natijani ekranga chiqarmaydi.

Misol.

```


function square($a)
{
$result = $a*$a;
return $result;
}

```

```

$new = 80;
echo "$new sonining kvadrati - ";
$h=square($new);
echo $h

```



### *COUNT funksiyasi.*

php dasturida ko‘plab funksiyalar mavjud bo‘lib ulardan biri count massiv elementlarini nechta ekanligini xisoblab beradi, lekin natijani ekranga uzatmaydi. Buning uchun biz quyidagi misol yordamida tushinib olamiz.


```

echo "<br>";
$name[] = "Alisher";
$name[] = "Nabijon";
$name[] = "Dilmurod";
$h2 = count($name);
echo "<br>name massivda - $h2 ta element mavjud";

```

count funksiyaning qiymatini \$h2 o‘zgaruvchiga o‘tkazib olamiz va uning qiymatini ekranga chiqaramiz.

Dastur natijasi.



YOki biror o‘zgaruvchi ishlatmasdan quyidagicha xam bajarish mumkin.

```
echo "<br>name massivda -" . count($name). " ta element mavjud";
```

*EXIT funksiyasi.*

php dasturi funksiyalaridan yana biri **exit ()** funksiyasidir. Bu funksiya mavjud bo‘lgan satrlardan oldingi satrlarni php dasturi bajaradi va bu funksiyadan keyingi satrlarni bajarmaydi.

Misol

```
echo "<br>";
```


```
$name[ ] = "Alisher";
```

```
$name[ ] = "Nabijon";
```

```
$name[ ] = "Dilmurod";
```

```
exit ("<p> Dastur 27 satrda tuxtatildi. </p>");
```

```
echo "<br>name massivda -" . count($name). " ta element mavjud";
```



Dasturga e‘tibor berilsa eng so‘nggi satrda kelayotgan

```
echo "<br>name massivda -" . count($name). " ta element mavjud";
```

satri ishlaymayapti. Chunki dasturning bajarilishi exit funksiyasidan so‘ng to‘xtatilgan.

*TRIM funksiyasi.*

Bu funksiya o‘zgaruvchidagi oldingi va so‘nggi o‘rinda turgan bo‘sh joy (probel)larni olib tashlash uchun xizmat qiladi.

```
$w = " Noutbuk ";
```

```
$w=trim($w);
```

**echo \$w;**

Dastur natijasida \$w="Noutbuk" so'zidan iborat bo'ladi.

*LIST funksiyasi.*

Bu funksiya bir o'tishda bir nechta o'zgaruvchining qiymatini o'zlashtirib oladi. Ayniqsa bu funksiya massivlarda ko'p qo'llaniladi. Amalda kam qo'llanilib, asosan skriptlarda qo'llaniladi.

**\$box= Array ("SHaftoli", "Bodring");**

**List (\$fruit, \$vegetable) =\$box**

Masalan massivning xar bir elementi aloxida o'zgaruvchi sifatida o'zlashtirilishi talab etilsa albatta ushbu list funksiyasi ishlatiladi.

YUqoridagi rasmda \$fruit=SHaftoli, \$vegetable=Bodring qiymatlari o'zlashtiriladi.

**\$box = array ("SHaftoli", "Bodring");**

**list(\$fruit, \$vegetable)=\$box;**

**echo \$fruit;**

**echo \$vegetable;**



Rasmda person1=Sasha, person1=Masha, person3=Vanya, person4=Any, person5= Kostya qiymatlari o'zlashtiriladi.

*DATE funksiyasi*

